

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!
N:50 (67215)
2018-yil 10-dekabr

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

www.tongyulduzi.uz

ISSN – 2010-6092

OLQISH OLGAN CHEMPTIONLAR

Butunjahon shaxmat olimpiadasi g'oliblari – Nodirbek Abdusattorov, Shamsiddin Vohidov va Nodirbek Yoqubboyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg'asi – «Spark» avtomobili bilan taqdirlandi.

7-bet



Tel:
(71) 244-63-08;
www.tongyulduzi.uz;
e-mail: info@tongyulduzi.uz;
telegram: t.me/tongyulduz

Sevimli gazetangizga
2019-yil uchun obuna
bo'lishga shoshiling!

Nashr
ko'rsatkichi
198

Insonning qiymati emas sim-u zar,
Insonning qiymati, bilim ham hunar!

BIR MAKTABDAN IKKI KITOBXON

respublika bosqichida bellashadi.

Kuni kecha «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovining Samarqand viloyat bosqichi bo'lib o'tdi. 10-14 yoshlilar o'ttasida o'tkazilgan bellashuvda Paxtachi tumanidagi 24-umumta'ilim maktabining 8-sinf o'quvchisi Mahliyo O'rroqova g'oliblikni qo'lga kiritdi. Endi kitobxon qiz tanlovning respublika bosqichida tengdoshlari bilan bellashadigan bo'ldi.


— Badiliy kitob mutolaa qilish juda yoqimli. Shu bois, har

kuni 6-7 soat vaqtimni kitob o'qish uchun ajrataman va bugungacha uch yuzdan ortiq badiiy asar o'qidim. Oilamizda ham shunday muhit shakllangan. Gohida biron-bir asar ustida o'zaro boshga kirishib ketamiz. Albatta, mutolaaga mehr qo'yishimda ustozim Nigora Husanovaning xizmati katta. U kishi menga kerakli kitoblarni topib berib, o'qishga undagan, — deydi Mahliyo O'rroqova.

Quvonarli, «Yosh kitobxon» tanloving 15-19 yoshlilar o'ttasida bo'lib o'tgan viloyat bosqichida shu maktabning 9-sinf o'quvchisi Mashhura Kamolova 1-o'rning munosib deb topildi va bellashuvning respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Bir maktabdan ikki nafr o'quvchi «Yosh kitobxon» tanloving respublika bosqichida bellashadigan bo'ldi. Biz kitobxon qizlarga omad tilaymiz.

O'z muxbirimiz




Bosh Qomusimizning 26 yilligi munosabati bilan mamlakatimizda ilk bor ko'zi ojiz bolajonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining brayl alifbosidagi nashri chop etildi. Bu orqali imkoniyati cheklangan yoshlar ham o'z haq-huquqlarini bilish imkoniga ega bo'ldilar.

KONSTITUTSIYA KITOBI ILK BOR BRAYL ALIFBOSIDA

Kitob taqdimotiga bag'ishlangan xayriya tadbiiri Toshkent shahar ixtisoslashtirilgan ko'zi ojizlar maktab-internatida bo'lib o'tdi. Kechani O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi direktori Komil Allamjonov ochib berdi. So'ng, maktab internat o'quvchilariga bayram sovg'alarini topshirdi.

— Respublikamizda bugun 3 ming nafr bola ko'zi ojizlar maxsus maktablarida ta'lim olmoqda. Ammo ularni darsliklar bilan ta'minlash borasida qator muammolar mavjud. Bu esa imkoniyati cheklangan o'quvchilar risoladagidek ta'lim olmayotganini anglatadi. Ular nafaqat darsliklar, balki metodik qo'llanmalar, badiiy asarlar ham o'qishlari lozim, — deydi K.Allamjonov.

Tadbir davomida 9-10-sinf o'quvchilar — Ilyos Boyqo'zhev, Farida Ravshanova, Oydinoy Yo'ldosheva hamda Yulduz Boytaboyevalar o'zlarini tayyorlagan she'r va qo'shiqlar bilan faol ishtiroy etdi.



Nigora ABDUNAZAROVA

«ALIFBE» KIMO'ZAR BAYRAMI EMAS!

O'quvchilik yillarim jonajon maktabimda bo'lib o'tgan bir tadbirni hali-hanuz shirin xotiralar bilan yodga olaman.

Esimda, o'shanda mehribon ustozim biz o'quvchilarining boshimizga harflarni ifodalovchi chambarlarni taqib qo'ygan edi. Ha, ha, o'sha atlas ko'ylagim-u do'ppim ham yodimda. Biz birin-ketin sahnaga chiqib, yodlagan she'r-u qo'shiqlarimizni maromiga yetkazib ijro etganimiz. Kechaga yig'ilgan ota-onalar, ustozlarning olqishi esa bolalik ruhimizga ozuqa bo'lgan.

Ha, topdingiz, bu o'sha barchamiz uchun qadron «Alifbe» bayrami edi. Savod chiqarish, xohlagan kitobini o'zi mustaqil o'qiy olish istagidagi bolajonlar uchun bu kun unutilmas sana, katta shodiyonadir. Sinfoshlar davrasida muroqli o'tadigan bu tadbir bir umr inson xotirasida muhrlanib qoladi.

Ammo bugun bu beg'ubor bayram ayrim bilim maskanlarida ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda. Suratkash-u videochi, o'quvchilar qanday liboslar kiyishi-yu muallimlarga qanday sovg'alar olish uchun ota-onalardan bir necha yuz minglab pul mablag'lari yig'ilayotgani yanada achnarli holdir. Afsuski, bunday bo'Imag'ur takliflar bilan ko'p hollarda ota-onalarning o'zlarini «tashabbus» ko'rsatishmoqda.

Shu o'rinda, bir sinfa

turli sharoit va imkoniyatiga ega oila farzandlari o'qishini unutmaslik kerak. Afsuski, ba'zi ota-onalar bolam bosh-qalardan kam bo'imasin yo'sinda ish tutadi. Nati-jada, sindfa tabaqalanish, sindfoshlar o'ttasida esa o'zaro tushunmovchilik yuzaga keladi.

Novvotoy opa PAR-DAYEVA, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 226-umumta'ilim maktabining 1-«Ax sind rahbari:

— Ayni kunlarda o'quvchilarim bilan «Alifbe» bayramiga puxta tayyorgarlik ko'romoqdamiz. Tadbir maktabimizning faollar zalida ota-onalar ishtiroyida o'tkaziladi. Unda bolajonlar uchun yil bo'yи foydalanadigan «Sinfdan tashqari o'qish» kitobini sovg'a qilmoqchimiz. Faqat ba'zi ota-onalar dil-bandlarining chiqishlarini suratga olish istagini bildir-

di. Ammo ota-onalardan pul yig'ilmasligi, shodiynoda ortiqcha dabdabalar ga yo'l qo'yilmasligini jiddiy nazoratga oлganmiz. Chunki «Alifbe» — beg'ubor bayram. Unga qadriyatlarimizga zid bo'lgan an'analar ni joriy etish o'sha beg'uborlikka putur yetkazadi. Zero, ma'naviy-ma'rifiy

tadbirlarni faqat o'quvchilarining bilimi va dunyoqarashini kengaytirish uchun tashkil etamiz.



Shahnoza JO'RAYEVA, uy bekasi:

— Hozir qizim 2-sinfda tahsil olmoqda. O'tgan yili u tahsil olayotgan maktabda «Alifbe» bayrami nishonlanishidan avval ota-onalar majlisiga o'tkazilgandi. Unda sindf rahbari bizga ta'lim maskanida ushbu tadbirni o'tkazishga doir qoidalar haqida so'zlab bergan. Ammo, o'shanda guvoh bo'lganimday, ba'zi ota-onalar o'z bolasi uchun bayram bahona katta shodiyona uyuştirish istagini bildirgan edi. Mening fikrimcha, farzandlarimizni hozirdanqo faqat bilim olishga, kamtarlik va me'yorga o'rgatishimiz zarur.

Aziz o'quvchim! Ushbu mavzu yuzasidan siz qanday fikrdasiz? Bu haqda, albatta, bizga yozib yuboring.

Sayyora QODIROVA

HOKIM SOVG'A TOPSHIRDI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligi Navoiy viloyati, Zarafshon shahridagi 2-umumta'lim maktabida keng nishonlandi. Shu kuni shahar huquq tartibot idoralari xodimlari o'quvchilarni tabriklash bilan birga, ularning haq huquqlariga oid qonunlarning mohiyati haqida ma'ruzalar qildilar.



Shuningdek, «Tong yulduzi» gazetasi tomonidan o'tkazilgan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi g'olib, ushbu maktabning 11-sinf o'quvchisi Sadoqat Jalolova va uning o'qituvchisi Sabo'hat Ochilova ham mukofotlandi. Ushbu mukofotni Zarafshon shahar hokimi Anvar Rajabov topshirdi va tadbir ishtirokchilarini Konstitutsiya bayrami bilan tabrikldi. O'quvchilarga yangi kitoblar sovg'a qildi.

Nigora JO'RAYEVA

BIZ KELAJAK YOSHLARI

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» tahriri yati xodimlari! Biz siftdoshlar bilan gazetaning ashaddiy muxlisimiz. Uning har bir sonini qoldirmay o'qiyimiz va o'zaro muhokama qilamiz. Ayniqsa, maqolalarni adabiyot sahifasini katta qiziqish bilan mutolaa qilaman. Tumanimizda tashkil etilgan «Bobur izdoshlari» to'garagi a'zosiman. Bo'sh vaqtimda she'rilar yozganim bois, Respublikada o'tkazilgan turli tadbirdarda, jumladan, «Jannah onalar oyog'i ostidadir» tanlovida ijod namunalarim bilan ishtirot etib, 3-darajali diplom bilan taqdirlandim. Maqsadim, kelajakda «Zulfiyaxonim izdoshlari» safidan o'rinn olish.

Biz kelajak yoshlari,
Peshqadamlik bizga xos.
Yengilmash kuch erumiz,
Barcha g'amlardan xalos.

Endi maqsadlar sari,
Dadil qadam tashlaymiz.
Kimdir yo'dan adashsa,
To'g'ri yo'lda boshlaymiz.

Mushtari ERKINOVA,
Andijon viloyati, Qo'rg'on tepe tumanidagi
21-umumta'lim maktabining 10-«A» sinf o'quvchisi

SEHRLI MASKAN

To'g'risini aytsam, ilgari maktabimizda o'quvchilarning ta'limga olishi uchun shart-sharoitlar yetarlicha emas edi. Quvonarlisi, bu yil maktabimiz «Obod mahalla» dasturiga kiritilib, to'liq kapital ta'midan chiqarildi. Sinfxonalarini isitish uchun yangi isitish moslamalari o'rnatildi.

Zamonaviy yoritish chiroqlari esa maktabimizga yanada ko'rk bag'ishladi. Bu ishlarni amalga oshirishda, albatta, maktabimiz direktori Nilufar opa Inamovaning sa'y-harakatlari beqiyos. Endi biz bu sharoitlardan umumli foydalaniib, chuqu bilim olish bilan birga, turli tadbir-u bellashuvlar o'tkazmoqdamiz. Bunda ustozimiz Muqaddas opa Qobilova bizga bosh-qosh bo'lmoqda.

Ta'limga yoritish chiroqlari esa maktabimizga yanada ko'rk bag'ishladi. Bu ishlarni amalga oshirishda, albatta, maktabimiz direktori Nilufar opa Begayeva menga yangi va yoshimga mos kitoblarni tavsya etadi. Kutubxona sehrla olamga o'xshaydi. Bu olamda men goh Robinzon Kruzo bilan kimsasiz orolga tushaman, goh Donki Xot bilan dunyo kezaman...

Zarina ISMOILOVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi
231-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

OBUNANING OLTIN QOIDASI

Yoki obuna majburiy emasligi bu – obuna bo'lmashlik kerak, degan ma'noni anglatmaydi.

Bu yilgi obuna mavsumi jarayoni maktablarimizda ancha murakkab kechayotir. Bunga mutasaddi tashkilotlar tomonidan obunaning majburiy emasligi to'g'risida berilgan ko'rsatma sabab bo'ldi. Aslida, bu ko'rsatma to'g'ri bo'ldi.



Har yili obuna mavsumida barcha og'irlik maktablar va o'qituvchilar zimmasiga tushardi. Go'yo maktab obuna «Omchorxona»ga o'xshab qolgandi. O'qituvchilar o'zlariga to'g'ri kelgan-kelmagan nashrlarga obuna bo'lishiga majbur edilar. Va niyoyat, ushbu achinlar ahvolga barham berildi. Lekin bu ko'rsatmani bir tomonlama tushunayotgan ayrim ota-onalar va o'qituvchilar afsuski, uchrab turibdi. Shu kunlarda maktablar, litseylarda bo'layotgan uchrashuvlarda obuna haqida ham so'z borayotir. Shunda ba'zi ota-onalar yoki maktab rahbarlari «Obuna majburiy emas-ku», deb og'zingizga uradi. Obunani bundoq bir yoqlama tushunmaslik kerak.

Har kimning o'ziga, sohsiga tegishli nashrlarga obuna bo'lish huquqi chegaralanmaygan. Bunga hech kim qarshilik ham qilmaydi. Masalan, barcha umumta'lim maktablari o'quvchilari o'zlarining sevimli nashrлari – «Tong yulduzi», «Klass» gazetalariga va «Gulxan», «G'uncha» jurnallariga obuna bo'lishlari juda ham zarur. O'z farzandining nurli kelajagi, a'lo o'qishi, bilimlar dunyosiga haqiqiy oshno bo'lishi va kelajakda jamiyatimizning yetuk, bilimdon insonlari safida yurishini xohlagan ota-onalar buni teran tushunib yetishlarini

juda-juda istardik. Hozir farzandlarimiz ayni ilm oladigan, tarbiya topadigan yoshta ekanligini unutmaylik.

Bilamiz, hozir oldingi davrlardagiga o'xshash maxsus «Obuna ro'yxatlari» yo'q. Lekin bevosita o'zimizga, faoliyatimizga tegishli, daxlord gazeta-jurnallar borki, ularga ko'rsatma yoki ro'yxatlarni kutmasdan bermalol obuna bo'lish mumkin. Ana shunday nashrlardan biri, shubhasiz, «Tong yulduzi» gazetasidir. Ushbu nashr uzoq yillardan buyon farzandlarimiz qalbida bilim va ziyoning nurli yulduzi bo'lib porlab kelayotgani ayni haqiqat. Unga 2019-yil uchun obuna bo'lgan o'quvchi yutqazmaydi, albatta, yutadi!

Aziz ota-onalar! Hurmatli ustozlar va qadrli o'quvchilar!

Har kimning o'zi yaxshi ko'rgan, o'zi yoqtirgan sevimli nashriga obuna bo'li shinling oson va qulay oltin qoidasi borligini bilasizlarmi? Bilmasangiz, aytib qo'yay – yagona yo'li va qoidasi obuna bo'lish. Buni aslo unutmang!

Yangi yilda yangi mazmundagi gazetamiz sahifalarida doimo ko'rishib, ma'naviy muloqot qilib turish biz uchun sharaf. Siz uchun ham shunday bo'lsa kerak. To'g'rimi?

Unda shoshiling, OBUNAGA OZ VAQT QOLDI!!

Ashurali JO'RAYEV,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist

HUQUQ VA ERKINLIKARIMIZ KAFOLATI

Ish izlab boshqa davlatga ketib qolgan yigit o'sha mamlakatning huquq tartibot organlari xodimlari tomonidan qo'lga olinadi.

Avvalo, til, buning ustiga o'zga mamlakatning qonun-qoidalarini bilmasligi tufayli uning haq-huquqi toptalib, qamoqqa tashlanadi. U yerda boshidan kechirgan ko'rguliklari musofirga dars bo'lib, oilasini tashlab kelganidan pushaymon yeydi. Unga o'sha davlatdagি O'zbekiston Respublikasi elchixonasining valiklari yordam berib, niyoyat, qadrondan go'shasiga qaytib keladi...

Navoiy shahridagi 16-DIUMning 4-«J» sinf o'quvchilari tayyorlagan sahna ko'rinishida ushbu voqeа yig'ilganlar ol-qishiga sazovor bo'ldi. «Konstitutsiya – baxtimiz qomusi» deb nomlangan ushbu tadbirda o'quvchilar Bosh Qomusimizning moddalarini dona-dona aylib berdi. Turli she'r, qo'shiqlarga boy tarzda o'tgan tadbirdan o'quvchilar Konstitutsiyamizning har bir inson uchun nechog'li qadrlar ekanligini bilib oldilar.

KORRUPSIYA – TARAQQIYOT KUSHANDASI



Bolajonlar, korrupsiya haqida ko'p marta eshitgansiz-a? U insonni halokatga boshlovchi, oxiri faqat pushaymonlik bilan tugaydigan xatarli yo'l hisoblanadi. Shuni to'g'ri anglagan insongina o'z hayot yo'lini beshikast va bezavol tanlaydi. Kuni kecha «Korrupsiya – taraqqiyot kushandası» mavzusida o'tkazilgan tanlovrning viloyat bosqichida Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Jahongir Esanov 2-o'rinni egallab, respublika bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi. G'olib Viloyat Adliya boshqarmasi tomonidan faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Kuni kecha Respublika bolalar kutubxonasida O'zbekiston Respublikasi Kons-



titutsiyasining 26 yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Unda poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 256-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchi-

lari, Yunusobod tumanidagi 272-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchilari o'z bayram dasturlari bilan ishtirok etdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari kichik yosha bo'lishlariga qaramay, ona Vatanga bo'lgan hurmat va muhabbatlarini juda go'zal tarzda ifoda qildi. Shuningdek, ustozlari tomonidan Qomusimiz haqidagi savol-javoblarga bolalar ravon va aniq javob berdilar.

Fikrash, so'z, e'tiqod,
Erkinligi bor bizda.
Tafakkur, erkin ijod,
Jo'sh urar qonimiza.

Kechaga 120-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchilari ijrosidagi kuy va raqslar hamda she'rlar fayz bag'ishladi.

N. ABDUNAZAROVA

OCHIQ ESHIKLAR KUNI

Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 52-imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktabda «Ochiq eshiklar kuni» tadbi tashkillashtirildi.



Har bir sinf o'quvchilari ijrosidagi sahnalaştirilgan bayram tomoshasi barchaga birdek manzur bo'ldi. Jumladan, 1-«B» va 1-«V» sinf bolajonlari jo'rligidagi «Yangi yil qo'nq'i roqlari jaranglaydi» qo'shiq'i jarangi zalni to'dirdi. 1-«A» sinf kichkintoylari esa «Onamizga yordam beramiz» qo'shig'iga raqs

tushdi. 2-«B» sinf o'quvchilari «Yulduzchalar bo'lamiz» qo'shig'i jiro etib, miriqib o'yashadi.

Quvonarlisi, maktabning har bir o'quvchisi o'z chiqishi bilan tadbiriga o'zgacha ruh bag'ishladi. Bayram shodiyonasida bilim dargohining uy sharoitida yakka tartibda o'qitiladigan 18 nafar o'quvchisi ham faol ishtirok etdi.

Bayram tantanalarida o'qituvchilar jamoasi ham bolajonlar bilan birga qo'shiq kuyladi, raqsga tushdi.

Tadbir so'ngida homiyalar tomonidan ulashilgan sovg'alari bolajonlar qalbiga quvonch ulashdi. Shuningdek, «Bolalar – bolalarga» aksiyasi doirasida hududda joylashgan 153-umumta'lim maktabi o'quvchilari tengdoshlariga kitob sovg'a qildilar.

Nurbek QIDIRALIYEV

KITOBXONLAR XUSHNUD BO'LDI



Poytaxtimizning Yasnobod tumanidagi 215-umumta'lim maktabida o'quvchilarining mutolaaga mehrini oshirish maqsadida shoir-yozuvchilar, el ardog'idagi insonlar ishtirokida badiiy kechalar, uchrashuvlar tashkil etish yaxshi an'anaga aylangan.

Kuni kecha bilim maskanida maktab kutubxonachisi Dilorom To'laganova tashabbusi bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir Dilshod Rajab hamda Shukur Mirzo bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Dastlab sahnaga boshlang'ich sinf o'quvchilari taklif etildilar. Bilingma chanqoq o'quvchilar shoiring «O'zbekiston», «Ishonch», «Istiqlol bolalari», «Yurt bayrog'i» kabi she'rлari ifodaligi aytilganda, zalda ancha vaqtgacha qarsaklar timmadi.

Shuningdek, uchrashuvda o'quvchilar «She'r qanday yoziladi?», «Yaxshi o'qish uchun nimalarga e'tibor qaratish kerak?», «Kitob o'qishning ahamiyati» kabi savollarga ijodkorlardan atroflichcha javoblar oldilar.

– Tadbirda ustoz ijodkorlarga she'rлarimdan o'qib berdim, – deydi 5-«B» sinf o'quvchisi Muslima Xudoyberdiyeva. Shoiring ilk she'r ham 5-sinfda o'qigan kezlar, «Gulxan» jurnalida chiqqan ekan. Shu bois, ijodkorlar bizlarga o'zlarining qimmatli maslahatlарini berishdi.

Tadbir so'ngida 5-«B» sinf o'quvchilari sahnalaştirilgan «Zumrad va Qimmat» ertagi namoyish etildi. Ertakning ingliz tilida sahnalaştirilishida ustoz Sevara Minorovaning hissasi katta bo'ldi.

Nodira NAZAROVA,
Nargiza XUDOYBERGENOVA,
ingliz tilli fani o'qituvchisi

SHU VATANGA BORDIR KERAGIM!

Vatan tuyg'usi... U qalbda qachon uyg'onadi? Balki «uyg'onadi» so'zi nisbiy tarzda aytilar. Balki Vatan tuyg'usi odam bilan birga tug'ilib, birga ulg'ayar...

Nima bo'lganda ham, dilda qachon kurtak ochib, qachon gulga kirganidan qat'iy nazar, bu tuyg'u insonni kindik qoni to'kilgan

Jumaniyozov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Muhammadjon Shokirov, sxuxandon Bahriiddin Muqimov kabi respublikamizning

g'olib Maftuna Jo'raqulovalar bor bilim va kuch-g'ayratlarini Vatan shon-shuhuratini yuksaltirish yo'llida sarf qilishga bel bog'laganlari haqida hayajon bilan gapirdilar.

Farangiz Aralovaning Navoiy hazratlari ijodidan o'qigan g'azali, Sankt-Peterburg shahrida o'tkazilgan «Roza Vostoka» tanlovi g'olibasi Umida Mirzaahmedovining ijro etgan kuylari, quvnoq, sho'x raqlari davraga yanada fayz qo'shdi.

Qutlibeka RAHIMBOYEVA



tuproqqa nisbatan mehr-muhabbatli qiladi. Shu tuproq uchun qayg'urish, uning sharafi, shoni uchun kurashishga undaydi. Shuning uchun ma'rifat oshyonni bo'lgan muktab va uning fidoyi o'qituvchilari o'z o'quvchilari qalbiga Vatan tuyg'usini jo etishni muhim vazifa deb biladilar.

Yaqinda Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 27-umumta'l'm muktabida bo'llib o'tgan «Shu Vatanga bordir keragim!» deb nomlangan tadbir ishtirokchilarini ham Vatan tuyg'usi bir davraga to'pladi. Muktobning o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinosbasari, tashkilotchi muallima Guliston Qodirqulova olib borgan tadbiriga filologiya fanlari nomzodi Rahimjon

taniqli insonlari taklif etildi.

Bizning tomirlarimizda dovyurak sarkardalar, ulug' mutafakkirlarning qoni oqadi. Ularga munosib izdosh bo'lish, hayot yo'llaridan ibrat olish bizning asosiy vazifamiz...

Muktab direktori Shohista Rafiqova, bir necha avlod bolalarini boshlang'ich sinfdan yuqoriga savodxon qilib kuzatib kelayotgan Ra'no Saidahmedova kabi muallimalar fikrlarini ishtirokchilar bilan baham ko'rgach, ta'l'm maskanining o'z yulduzlar – sportning gimnastika turi bo'yicha Respublika championi Viktoriya Sinauridni, sambo bo'yicha Respublika championi Azimjon Sotvoldiyev, «Bilimlar bellashuviga»ning shahar bosqichi

Kuni kecha muktabimizda o'quvchilarni chet tillarda erkin so'zlashishlarini ta'minlash maqsadida boshlang'ich sinflar o'rtasida «Yosh tarjimonlar» intellektual musobaqasi tashkil etildi.

YOSH TARJIMONLAR

Tadborda o'quvchilar engilz tilida she'r va qo'shiqlar ijro etdi. Shuningdek, savol-javoblar bahsida olgan bilimlarini yana bir bor sinovdan o'tkazdi. Yakunda 2-sinf o'quvchisi Safina Tursunpo'latova, 3-sinfdan Saida Hakimova, 4-sinfdan Azamat Fattullayev bellashuvda g'olib bo'ldi. Ular muktab rahbariyati tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Zebiniso SHARIPOVA,
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 1-umumta'l'm muktabining engilz tili fani o'qituvchisi

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

INTERESTING EXERCISE

Write the correct verb in each sentence.

Eat, grow, hope, choose, feel, hit.

- Bobur asked Mom if she could _____ cookies.
- Sardor had to _____ ten players for his team.
- The baby will _____ a lot his first year.
- Bobur tried _____ the baseball as hard as he could.
- «I _____ it does not rain!» the farmer said.
- Zilola likes to _____ her cat's soft fur.

Ma'mura G'ULOMOVA



Painter: Yousubek HALIMBEKOV

HAPPY ABSTRACT NOUN

Find path anger to joy by connecting with abstract nouns. You can move up, down, left, right, or diagonal.



Anger	happiness	hope	house	witness	watch	computer	letter
key	room	city	intelligence	bag	prize	justice	belief
toy	cargo	wonder	box	cake	despair	judge	freedom
view	courage	fish	commander	bravery	newspaper	water	idea
hate	shelf	phone	imagination	fear	bag	truth	ship
loneliness	map	kindness	book	present	piano	goal	factory
owe	love	chair	scissors	tool	talent	student	magazine
case	shoe	proceed	ingredient	company	flower	generosity	joy

Muhammadsharif FAYZULLAYEV




THE CONSTITUTION DAY

The 8th of December is a great holiday in our country. On that day we celebrate 26th anniversary of the Constitution day. There is all our laws collection in Constitution book. It is the book which is the main source. It consists of 6 chapters, 25 parts, and 128 articles. In our school we organize parties, competitions with our school pupils. We are going to form a party which is called «The Constitution is the founder of the laws». We are going to recite the poems, the articles, the songs about our independence. I am proud of my Motherland.

Avazbek BOLTAYEV,
the pupil of school № 43 in Gijduvon district Bukhara region

Bolalik nafaqat quvnoq davr,
bolalik inson shaxsi
shakllanishining ilk davri hamdir.



Bizning ovulumizda yetti ota avlodni bilish odatiga qat'iy
rioya qilinardi. Shu sababdan, o'zimizdan oldin o'tgan yet-
ti avlodimizni bilish muqaddas burch ekanligi bolalikdan
ongimizga singdirilardи.

Chingiz AYTMATOV

DUNYONI ZABT ETGAN ADIB

Buyuk qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovning 90 yilligiga bag'ishlab maktabimizda «Asarlar bilan dunyoni zabt etgan adib» mavzusida tadbir bo'lib o'tdi. Sahna qirg'iz xalqi an'analarini asosida o'ziga xos tarzda bezatildi, shuningdek, monitor orqali yozuvchining hayoti, ijodi, asarlar bo'yicha ishlangan badiiy filmlardan lavhalari, adib hayotiga bag'ishlangan videolayhalar namoyish etildi. Tadbir tashkilotchisi, ona til va adabiyot fani o'qituvchisi Abdunazar Bo'riyev Ch. Aytmatov o'zbeklarning sadoqatli do'sti ekanligi, qolaversa, sho'ro tuzumi davrida xalqimiz boshiga bo'xtlonar yog'dirliganda vatandoshlarimizni himoya qilib, «O'zbek xalqining taqdirini o'z taqdirimdan ajrata olmayman», deb

aytgan gapini alohida ta'kidlab o'tdi.

Shu o'rinda aytish kerakki, Ch. Aytmatovning asarları dunyo miqyosida eng ko'p o'qilib, Shekspir va Tolstoydan keyingi o'rinda turadi.

Tadbirda atoqli adib xotirasiga bag'ishlab 8-sinf o'quvchilarini tomonidan aytigan she'rlar tomoshabinlarni bee'tibor qoldirmadi. Ayniq-

sa, 8-qozoq sinfi o'quvchisi Jazira Nurullayevaning adib qalamiga mansub «Somon yo'lli» qissasidagi To'lgonoy timsolida chiqishi barchani hayajonga soldi. Qolaversa, shu sinf o'quvchisi Alisher Tutqaboyev «Oq kema» qissasidagi bola rolini mo-hirona ijro etganda, tomoshabinlar qalbi larzagaga keldi.

Tadbir so'ngida viktorina

tashkil qilindi. Bu orqali o'quvchilar o'zlarini qiziqtir-gan savollarga to'laqonli javob oldi. Shuningdek, maktab ma'muriyatini tadbirni tashkil etgan o'qituvchi va o'quvchilarga Ch. Aytmatov asarlaridan taqdim etdi.

Salomat DAVRONOVA,
Navoiy viloyati, Nurota
tumanidagi 32-umumta'lim
maktabi o'qituvchisi

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

«ATOQLI IJODKOR» AYLANMA KROSSVORDI

**Belgilangan xonadan raqam
atrofiga soat mili yo'nalishida:**

- Chingiz Aytmatov asarida betakror tabiatini bayon etgan orombaxsh suv maskani.
- Atoqli adib validasining ismi.
- Yozuvchining «Oq kema» qissa asosida ekranlashtirilgan filmning bosh qahramoni.
- Chingiz Aytmatov tavallud topgan qishloq.
- Qissa nomidan: «Erta kelgan ...».
- Ijod sohibini dunyoga mashhur qilgan ilk qissalaridan biri.
- Chingiz Aytmatov asarlarini ona tilimizga o'girgan tarjimonlardan biri.
- Ijod sohibi Oliy adabiyot kursida tahlil oлgan va xizmat qilgan poytaxt shahar.
- «Askar bola» hikoyasi bosh qahramoni.
- Ijodkor ardoqlagan manba.
- Taniqli yozuvchi sazovor bo'lgan O'zbekiston Respublikasining ordenlaridan biri.
- «Yuzma-yuz» qissasi qahramoni.
- Chingiz Aytmatov sazovor bo'lgan ilmiy unvon.
- Mashhur qissa nomidan: «..., Gulsar!».
- San'at arbobi, adibning «Somon yo'lli» qissasi asosida respublikamizda sahnalashtirilgan «Momo Yer» spektakli musiqasi muallifi.
- Nasriy asar turi.



Tuzuvchi:
Foziljon ORIPOV

BOLA TARBIYASI:

BUNGA OTA-ONA MAS'ULMI YOKI USTOZ?

Maktabga chiqayotgan ikki bolaga sumka to'lal kitob va qo'g'irchoqlar taklif qilindi. Shunda ulardan biri sumkani talashib oldi, yana biri esa qo'g'irchoqni. Nega shundayligini bilasizmi? Chunki birinchi bola maktabga chiqishga tayyor, ikkinchisining hali o'qish-yozishga salohiyati yetarli emas. Shu bois, psixologlar bola tarbiyasida pedagoglarning ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi zarurligini ta'kidlashadi.

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 300-IDUMDA o'tkazilgan ota-onalar yig'ilishi ana shunday noan'anavisi usulda tashkil etildi. «Bola tarbiyasida kim mas'ul?» mavzusidagi majlisga psixologlar, farzand tarbiyasida muvaffaqiyatga erishgan namunalni oila vakillari, ota-onalar taklif etildi. Tadbir avvalida O'zbekiston psixologlari Milliy assotsiatsiyasi bo'limi boshlig'i, dotsent Mirsharof Sodiqov «Bola tarbiyasida ota-onaling o'mni» mavzusini hayotiy misollar asosida qiziqarli tarzda tushuntirib berdi. Shundan keyin ota-onalar «Farzandingiz o'quvchi bo'ldi: bola tarbiyasida kim mas'ul?» mavzusida o'tkazilgan yig'ilishi taklif qilindilar. Ular guruhlarga bo'lingan holda 1-sinfga chiqqan farzandlarining



- Ta'limg dargohimizda 5 ming nafardan ziyod o'quvchi tahsil oladi, - deydi matabning o'quv ishlari bo'yicha rahbar o'rinnbosari Munira Yusupova. - Kundalik hayotimizda bo'ladigan oddiy, juda kichik voqe-hodisalar ham bola shaxsining shakllanishida o'z ta'sirini ko'ssatadi. Shu bois, maktabga ilk qadam qo'ygan o'quvchiga qo'yilayotgan talablarni bajarishda uning ota-onasiga ba'zan ko'mak kerak bo'ladi. Bu borada pedagoglarning ota-onalar bilan hamkorlikda ishlashi faqat ijobjiy natijalarga olib keladi.

maktab hayotiga ko'nkish davrida uchraydigan qiyinchiliklarga yechim topishga undovchi turli savollarga birgalikda javob topishga harakat qildilar. Shuningdek, ularga fikrashga undovchi

topshiriqlar berildi. Javoblar jamoaning muhokamasi tashlandi, ustozlar hamda maktab psixologi maslahatiga tayanib, muammolarga yechim izlandi.

— Bugungi yig'ilish tashkilotchilaridan juda xursandmiz, — deydi 1-«D» sinfida o'qiydigan Muhammadjon Shavkatovning otasi Alisher Bobojonov. — Ushbu tadbir sabab farzandlari

minating maktabga moslashuvida yuzaga kelayotgan muammo va yechimlarga javob topganday bo'dik. Ayniqsa, mulohaza va mushohadaga chorlovchi qisqa videoroliklar hamda qimmatli tavsiyalardan chiqqan xulosalarimizni boshqa otalarga ham yetkazishni niyat qildik.

Aziz bolajonlar! Kelajakda Siz

uchun sidqidildan mehnat qilayotgan ustoz va ota-onalaringiz ishonchini munosib oqlaysiz, degan umiddamiz.

N. NAZAROVA, S. QODIROVA

OLQISH OLGAN CHEMPTIONLAR

Gazetamizning o'tgan sonida yosh shaxmatchilarimiz nufuzli xalqaro musobaqada muvaffaqiyatlida dona surayotgani haqida hikoya qilgan edik. Quvonarlisi, Turkianying Ko'niya shahrida o'tkazilgan Butunjahon shaxmat olimpiadasi yakunida Saidali Yo'ldoshev boshchiligidagi terma jamoamiz barcha raqiblarini ortda qoldirgan holda bosh sovrinni qo'lg'a kiritdi.



O'tgan hafta yosh iqtidor egalari yurtimizga qaytib keldi. Ular Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida keng jamoatchilik vakillari, sportchilar, championlarning ota-onalar, o'quvchi-yoshlar ishtirokida tantanali kutib olindi.

Jahon shaxmat olimpiadasi yirik musobaqa bo'lib, bu gal turnirda dunyoning 39 mamlakatidan 46 jamaa tarkibida 222 nafar yigit-qiz ishtirok etdi. Jamoalar jami 9 turda g'oliblik uchun kurash olib bordi.

Turnirda xalqaro grossmeyster Nodirbek Abdusattorov birinchi taxtada eng kuchli sportchilar bilan dona surib, 9 imkoniyatdan 5,5 ochko jamg'ardi. Xalqaro toifadagi sport ustasi Nodirbek Yoqubboev ikkinchi taxtada 9 imkoniyatdan 8 ochko jamg'arib, o'z taxtasida tengsiz sportchi deya tan olindi. Javohir Sindorov uchinchida taxtada 7 imkoniyatdan 4,5 ochko jamg'ardi. Shuningdek, Shamsiddin Vohidov 8 imkoniyatdan 7,5 ochko jamg'arib, imtina taxtada oltin medalhi qo'lg'a kiritdi. Sport ustaligiga nomzod Sitora Saparova esa 3 imkoniyatdan 1 ochko to'pladi.

Bellashuvlar davomida shaxmatchilarimiz Moldova, Polsha, Eron, Ukraina, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Vengriya kabi mamlakatlarning kuchli terma jamoalarini mag'lubiyatga uchratdi. Faqat AQSH terma jamoasiga kichik hisobda imkoniyat boy berildi. Yakunda o'zbek farzandlari 9 imkoniyatdan 8 ochko jamg'arib, olimpiada g'olibiga aylandi. 2-o'rin hindistonlik o'smirlarga nasib etgan bo'lsa, 3-o'rinni esa xitoylik sportchilar egalladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston o'smirlar terma jamoasi Butunjahon shaxmat olimpiadasi tarixida ilk bor shunday yuksak natijaga erishdi.

S.TURSUNOV

Bugun yurtimizda sport bilan shug'ullanayotgan bolalarning safi kun sayin ortib bormoqda. Ular erishayotgan g'alabalar yurtimiz nomini butun dunyoga tanitmoqda.

SINFDOSSHAR SARDORNI QUTLADI

Bilasizmi, kuni kecha poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 30-umumta'l'm maktabining 6-sinf o'quvchilari champion sindoshini g'alaba bilan qutlash tadbirini o'tkazdi. Boisi, tengdoshlari Sardor O'razimbekov Malayziyaning poytaxti Kuala-Lumpurda taekvando bo'yicha bo'lib o'tgan xalqaro championatda ikkita oltin medalni qo'lg'a kiritibdi.



Qahramonimizning birdaniga ikkita medalga sazovor bo'lganining boisi bor, albatta. Ismi jismiga monand Sardorbek til yo'nalishidagi mashqlarni a'lo darajada bajargan bo'lsa, massogi bo'yicha ham yaxshi natijalar ko'ssatibdi.

Yosh champion do'stingizning bu muvaffaqiyatida murabbiyi Nodirbek Odilboyevning hissasi katta. Ular uch yildan buyon shogirdidan o'z tajriba va bilimini ayamaydi. Championning sinf rahbari Maqsuda Husanova va maktab rahbari Qirmiz Hotamova esa Sardorbek bilan haqli ravishda faxrlanishadi. Axir kim ham shunday champion o'quvchisi-yu do'sti bo'lislini istamaydi, deysiz?!

SAYYORA

O'YLAB BOQ, TOPISHMOQ



Qadrli kitobsevar bolajonlar! Orangizda o'quvchiga zavq-u shavq ulashadigan qvnoq she'rlar o'qishni yoqtirmaydiganlar topilmasa kerak-a? She'rdagi qvnoq misralar kayfiyatizingizni ko'taribgina qolmay, sizni o'ylashga, fikrlashga, mushohadaga chorlasa-chi? Nur ustiga a'lo nur bo'lardi, deysizmi? Unda Sizga ajoyib bir yangiligimiz bor!



Kuni kecha «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bolalar ijodkor Feruza Jalilovaning «O'ylab boq, topishmoq» nomli to'plami nashrdan chiqdi. Hali siyoji ham qurishga ulgurmagan mazkur to'plam muallifi siz bolajonlarning xohish-istiklaringizdan yaxshi xabardor chog'i, 100 ta she'riy topishmoq yozibdi.

Kitobdan joy olgan tabiat unsurlari va hodisalar, gul, meva va poliz ekinlari, qushlar va joniyorlar hamda turli mavzularga oid topishmoqlar siz aziz o'g'il-qizlarning tabiat, hayvonot va nabotot olami haqidagi bilimlaringizni yanada boyitadi. Sizni topqirlikkagina emas, tezkorlikka ham undaydi. Axir topishmoqning javobini hammadan birinchi bo'lib aytishga ulgurish ham juda muhim-da. To'plamdan joy olgan topishmoqlardan ayrimlarini e'tibor-giza havola qilyapmiz. Ularни uka va singillaringizga ham o'qib berib, topqirligi-yu tezkorligini sinab ko'ring.

Ikki qavat to'nim bor,
Kech kuzakda pishaman.
Qoqib kaltaklamanglar,
Pishsam, o'zim tushaman.



Yerdami, daraxtdami,
Doim sergak turaman.
Sichqon qulab, kuchukdan
O'zim qoqib yuraman.



Ikki ko'z-u bir tana,
Bajaradi muhim ish.
Qo'lidan kelgani shu:
Bo'lish, kesish, ayirish.



O'ynab tushar samodan,
Oppoq, yengil, par misol.
Har uchquni betakror,
Naqqosh naqshiga timsol...



Siz bilimdon, zukko, kitobsevar bolajonlarning kitob javoningizda bunday kitoblar ko'pligiga shubhamiz yo'q. «Bolalar 100 xazinasi» turkumida chop etilgan ushbu mitti to'plam ham sevimli adabiyotlarining qatoridan munosib o'rinn egallaydi, degan umiddamiz.

DOIMIY HAMROHIMIZ

Men O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'linmasida faoliyat olib borayotgan Boltabay Bekmatov rahbarligidagi «Oydin orzular» to'garagi a'zosiman. Shu kunga qadar «Kamalak» yulduzları, «Yuksak ma'naviyatlari avlod» tanlovlarinining viloyat bosqichlarida qatnashib, g'olib bo'ldim. Yaqinda Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tkazilgan «Yosh ijodkorlar» seminarida ishtirok etib, diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandim.

Shuningdek, «Topishmog'im toping-chi», deb nomlangan kitobim chop etilib, tengdoshlarim qo'liga yetib bordi.

Bu qadrden gazetaning rang-barang sahifalari biz kabi qishloq yoshlarining dilidan munosib o'rinn egallagan, desam, adashmagan bo'laman. Ayniqsa, gazetadagi krossvord va boshqotirmalarni sinfdoshlarim bilan qiziqib yechamiz. Yangi yilda ham «Tong yulduzi» eng yaqin hamrohimiz, sirdoshimiz bo'lishiga ishonaman. Sevimli nashrimga ijodiy zafarlar tilab qolaman.

Tojigul YO'LDSHEVA,
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi
15-umumta'lum maktabining 9-sinf o'quvchisi



BARCHA INSON BAXTIYOR

Konstitutsiya – faxrimiz, Erkin ozodligimiz. Unda bir ulug' so'z bor – Qonun himoyasida, Barcha inson baxtiyor. Dunyoda erkin xalqlar, Ozodlik ulkan shior. Mustaqil ona yurtda, Qomusimiz ustuvor.

Shohruh QODIROV,
Surxondaryo viloyati, Oltinsoy
tumanidagi 22-umumta'lum
maktabining 5-sinf o'quvchisi

KAPALAK - FE'LIMIZDAN BERAR DARAK

Aziz bolajonlar! Ushbu rasm orqali ruhiy olamingiz haqida ma'lumotga ega bo'lishni xohlaysizmi? Unday bo'lsa, quyidagi kapalaklardan birini tanlang:



1-kapalak

Yorjin va ijobji shaxssiz. Odamlar sizga yorug'lilik kapalakchalar kabi ergashadi. Qolaversa, pok va samimi qalbingiz bor, unda hamma uchun joy topiladi.

O'zingiz haqingizda unchalik ham o'ylamaysiz, boshqalar uchun juda ko'p ish qilasiz. Maslahatimiz, o'zingizga ko'proq e'tibor bering.

2-kapalak

Ko'plab iqtidor va qobiliyatlarga ega bo'lgan ijodkor insonsiz. Sizga kuchli tomonlaringizga tayanishni va yuragingizga quluoq tutishni maslahat beramiz.

3-kapalak

Nozikta'b va juda samimiy onsonsiz. Koinot sizga boshqa odamlarning xatti-harakatlari haqida qayg'urmaslikni maslahat beradi.

4-kapalak

Kayfiyatining juda tez o'zgaradi. Ba'zida yumschoq, ba'zan esa qo'polsiz. Maslahatimiz, hayotdagi ikir-chikirlarga e'tibor ber mang. O'zingizni chiroyli narsalar va yaxshi insonlar bilan o'rab oling. Ishoning, hammasi yaxshi bo'ladi!

Internet manbalari asosida Sherli TOSHNIYOZOV tayyorladi

10-dekabr 2018